



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 12 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 12

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 9, ISSUE 12



ТОШКЕНТ-2024

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№12 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2024-12>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'afvor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Artur Gambaryan
yuridik fanlar doktori, professor (Armaniston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)
Ahmad Issa Altwiissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Skripnikov Nikolay Kuzmich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salayev Nodirbek Saparbayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Taxirov Farhod
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govverjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

1. Xidoyatov Parvizbek Istamovich EKSPERIMENTAL TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY TABIATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	5
2. Ubaydullayev Abror Qutpilla o'g'li XIX-XX ASRLARDA ISLOM HUQUQIDA MOLIYA INSTITUTINING RIVOJLANISHIGA TA'SIR KO'RSATGAN SIYOSIY-HUQUQIY JARAYONLAR.....	12
3. Хамдамова Фируза Уразалиевна ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ.....	23
4. Шорахимов Хусан Муроджон ўғли ҚУРИЛИШ СОҲАСИДА ДАВЛАТ НАЗОРАТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.....	32
5. Abdullayev Jamshid Djamilovich TIBBIY XIZMAT KO'RSATISH BO'YICHA AYRIM SHARTNOMAVIY MUNOSABATLARNI FUQAROLIK HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	41
6. Восиев Жамшид Мустафоевич ИНСОННИНГ БИОМЕХАНИК ЎЗГАРИШИДА ШАФФОФЛИК ВА ЖАВОБГАРЛИКНИ ОШИРИШ УЧУН РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ.....	49
7. Ашурова Нилуфар Ўктамовна ВОЯГА ЕТМАГАНЛАРНИНГ ҲИМОЯСИ: ЖИНОЯТЛАР ТУРЛАРИ ВА УЛАРГА НИСБАТАН ЖАВОБГАРЛИК.....	63
8. Давлетмуратов Султанмурат Рустемович АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАРДА МЕҲНАТНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ ҚОИДАЛАРИНИ БУЗИШ УЧУН ЖИНОИЙ ЖАВОБГАРЛИК: ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ.....	75
9. Хайдаров Шухратжон Джумаевич ХАВФ ОСТИДА ҚОЛДИРИШ ЖИНОЯТИНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ ВА ЎХШАШ ЖИНОЯТЛАРДАН ФАРҚЛАШ МАСАЛАЛАРИ.....	82
10. Иброхимов Бахтиёр Тойиржонович ПРОКУРОРНИНГ ЖИНОЯТ ИШИ КЎЗГАТИШ БОСҚИЧИДА ФУҚАРОЛАРНИНГ ҲУҚУҚ ВА ЭРКИНЛИКЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ ФАОЛИЯТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....	90
11. Ширинкулов Бахтиёр Ифтихор ўғли ҚУРИЛИШДА МЕҲНАТ МУҲОФАЗАСИ ҚОИДАЛАРИНИ БУЗИШ: СУБЪЕКТ ВА ЖАБРАНУВЧИ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	99
12. Xaydarov Mirsaid Mirjabborovich KUCHLI TA'SIR QILUVCHI YOKI ZAHARLI MODDALARNI QONUNGA XILOF RAVISHDA MUOMALAGA KIRITISHGA QARSHI KURASHISHNING AYRIM JHATLARI.....	107




12.00.01-ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

Xidoyatov Parvizbek Istamovich,
 Surxondaryo viloyati prokuraturasi
 Kadrlar bo'limi boshlig'i 1-darajali yurist
 E-mail: xayitov085@mail.ru

EKSPERIMENTAL TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY TABIATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

For citation: Khidoyatov Parvizbek Istamovich. THE LEGAL NATURE AND SPECIFIC FEATURES OF EXPERIMENTAL REGULATION. Journal of Law Research. 2024, 9 vol., issue 12, pp. 5-11

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14259897>

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada eksperimental tartibga solishning huquqiy tabiati, uning mohiyati va amaliy ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Qonunchilik doirasidagi ushbu mexanizm raqamli innovatsiyalarni rivojlantirish va sinash uchun maxsus shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan. Maqolada "tartibga solish qumdoni" konsepsiyasining huquqiy xususiyatlari, ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari hamda bu mexanizmning jamiyatga va iqtisodiyotga ta'siri haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ushbu sohadagi ilg'or tajribalari va xalqaro amaliyotlar o'rganilgan.

Kalit so'zlar. Eksperimental tartibga solish, qonun, raqamli innovatsiyalar, tartibga solish qumdoni, huquqiy tabiat, innovatsion texnologiyalar, eksperimental huquqiy rejim, huquqiy mexanizmlar, tajriba.

Хидоятлов Парвизбек Истамович,
 Начальник отдела кадров прокуратуры
 Сурхандарьинской области, Юрист 1 класса
 E-mail: xayitov085@mail.ru

ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И ОСОБЕННОСТИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются правовая природа, сущность и практическое значение экспериментального регулирования. Этот механизм в рамках законодательства направлен на создание специальных условий для развития и тестирования цифровых инноваций. В статье рассматриваются правовые особенности концепции "регуляторной песочницы", права и обязанности участников, а также влияние этого механизма на общество и экономику. Кроме того, изучен передовой опыт в данной области и международная практика.

Ключевые слова: экспериментальное регулирование, закон, цифровые инновации, регуляторная песочница, правовая природа, инновационные технологии, экспериментальный правовой режим, правовые механизмы, опыт.

Khidoyatov Parvizbek Istamovich,
Head of the Human Resources Department
of Surkhandarya Regional Prosecutor's Office, 1st Class Lawyer
E-mail: xayitov085@mail.ru

THE LEGAL NATURE AND SPECIFIC FEATURES OF EXPERIMENTAL REGULATION

ANNOTATION

This article analyzes the legal nature, essence, and practical significance of experimental regulation. Within the framework of legislation, this mechanism is aimed at creating special conditions for the development and testing of digital innovations. The article examines the legal characteristics of the "regulatory sandbox" concept, the rights and obligations of participants, as well as the impact of this mechanism on society and the economy. Furthermore, advanced practices in this field and international experiences are studied.

Keywords: experimental regulation, law, digital innovations, regulatory sandbox, legal nature, innovative technologies, experimental legal regime, legal mechanisms, experience.

Kirish

Zamonaviy dunyoda texnologiyalar va ijtimoiy munosabatlarning jadal rivojlanishi qonunchilik tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda. An‘anaviy huquqiy tartibga solish usullari ko‘pincha o‘zgaruvchan sharoitlarga moslasha olmaydi va innovatsion yechimlarni to‘sib qo‘yadi. Bu muammolarni hal qilish uchun ko‘plab mamlakatlar eksperimental tartibga solish mexanizmlarini joriy etmoqda. Ushbu maqolada eksperimental tartibga solishning mohiyati, huquqiy asoslari va o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi, shuningdek, uning ijobiy va salbiy tomonlari ko‘rib chiqiladi.

Eksperimental tartibga solish - bu yangi texnologiyalar, biznes modellari yoki ijtimoiy amaliyotlarni sinab ko‘rish uchun cheklangan vaqt va hududda amalga oshiriladigan huquqiy tajriba. Bu yondashuv qonun chiqaruvchilarga yangi qoidalarning samaradorligini baholash va ularni keng miqyosda joriy etishdan oldin tuzatishlar kiritish imkonini beradi [1].

Ushbu muammoni hal qilish maqsadida huquq nazariyasida yangi konsepsiya - eksperimental huquqiy rejim (EHR) paydo bo‘ldi. EHR g‘oyasi ilk bor 1980-yillarda AQShda muhokama qilina boshlangan bo‘lsa-da, uning amaliy ahamiyat kasb etishi XXI asr boshlariga to‘g‘ri keldi. Bunga sabab, aynan shu davrda texnologik innovatsiyalar (masalan, blokcheyn, sun‘iy intellekt, avtonom transport vositalari) shu qadar tez sur‘atlarda rivojlandiki, mavjud huquqiy mexanizmlar bilan ularni tartibga solish deyarli imkoniyati yo‘q.

EHRning mohiyati shundaki, u innovatsion mahsulotlar, xizmatlar yoki texnologiyalarni cheklangan huquq (doira)da va vaqt oralig‘ida tajribadan o‘tkazish va xuloslar olish imkonini beradi. Bu esa quyidagi muhim masalalarga aniqlik kiritishga yordam beradi:

1. Innovatsion g‘oyalarni real amaliy shart-sharoitlarda sinab ko‘rish va ularning samaradorligini baholash.
2. Yangi texnologiyalarning jamiyat va iqtisodiyotga ta‘sirini o‘rganish.
3. Mavjud huquqiy normalarning innovatsion rivojlanishga mos kelish-kelmasligini aniqlash.
4. Yangi tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish.

EHRning ilmiy asoslanishi huquq nazariyasining bir qator yo‘nalishlariga tayanadi. Jumladan:

- Huquqiy plyuralizm nazariyasi (J. Griffiths, S.F. Mur) EHRning turli huquqiy tizimlar va normalar bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lishi mumkinligini asoslaydi.
- Huquqiy eksperimentalizm g‘oyalari (Ch. Seybl, M. Dorf) qonunchilikni takomillashtirishda tajriba-sinov usullaridan foydalanish zarurligini ta‘kidlaydi.

• Moslashuvchan boshqaruv nazariyasi (adaptive governance) (K. Folke, T. Xan) EHRning murakkab tizimlarni boshqarishdagi ahamiyatini ochib beradi .

Eksperimental tartibga solishning asosiy xususiyatlari:

1. Vaqtinchalik xarakterga ega. Bu xususiyat tajriba natijalarini aniq vaqt oralig'ida baholash imkonini beradi. Masalan, O'zbekistonda 2022-2023-yillarda ayrim hududlarda soliq imtiyozlari tajriba tariqasida joriy etildi.

Muhim jihatlari: Aniq boshlanish va tugash sanasi belgilanadi hamda uning davomiyligi 6 oydan 3 yilgacha belgilangan bo'lishi mumkin. Muddatni uzaytirish yoki qisqartirish mexanizmlari ko'rsatib o'tilishi mumkin.

2. EHR (eksperimental huquqiy rejim) cheklangan qo'llanish doirasini nazarda tutadi. Tajriba xatarlarini kamaytirish va natijalarni aniqroq baholash imkonini beradi. Uni o'tkazishda aniq bir geografik hudud tanlanadi hamda qaysi sohada yoki faoliyatda qo'llanishi oldindan belgilab olinadi.

3. Moslashuvchanlik. Real vaqtda muammolarni aniqlash va tuzatish kiritish imkonini beradi, masalan masofaviy ta'lim platformasini sinash jarayonida interfeys va funktsionallikka o'zgartirishlar kiritish

4. Baholash mexanizmi: Tajriba samaradorligini ob'ektiv baholash imkoniyati mavjud. Miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari belgilanadi, ma'lumotlarni yig'ish usullari tanlanadi hamda tahlil metodologiyasi ishlab chiqiladi

5. Shaffoflik: Jamoatchilik nazoratini ta'minlash va ishonchni oshirish imkonini beradi, misol uchun davlat xizmatlari markazlarida yangi xizmat turini joriy etish bo'yicha tajriba natijalari e'lon qilinishi. Bu orqali jamoatchilikni xabardor qilish kanallari aniqlanadi, hisobotlar muntazam e'lon qilinadi va muhokama platformalari yaratiladi

Yuqorida keltirilgan xususiyatlar o'zaro bog'liq bo'lib, eksperimental tartibga solishning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan, shaffoflik- moslashuvchanlikni oshiradi, chunki manfaatdor tomonlardan teskari aloqa olish imkonini beradi. Cheklangan qo'llanish doirasi esa baholash mexanizmining aniqligini oshiradi.

Shu bilan birga, har bir tajriba o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi va yuqoridagi elementlarning nisbati turlicha bo'lishi mumkin. Asosiysi, tajribaning maqsadiga muvofiq kelishi va ilmiy asoslangan bo'lishidir.

Eksperimental tartibga solish huquqiy tizimning yangi elementi sifatida paydo bo'ldi va uning huquqiy tabiati haqida turli fikrlar mavjud. Ba'zi olimlar uni huquqning alohida tarmog'i deb hisoblasa, boshqalar uni mavjud huquqiy institutlarning rivojlanishi sifatida ko'radilar [2].

Eksperimental tartibga solishning huquqiy asoslari:

Konstitutsiyaviy asoslar: Ko'pgina mamlakatlarda eksperimental normalar o'z Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan orqali tan olingan.

Maxsus qonunlar: Eksperimental tartibga solish to'g'risidagi qonunlar qabul qilingan (masalan, Fransiyada 2003-yilgi qonun).

Sohaviy qonunchilik: Ayrim sohalarda (masalan, moliyaviy texnologiyalar) eksperimental rejimlar joriy etilgan.

Xalqaro huquqiy hujjatlar: Eksperimental tartibga solish bo'yicha xalqaro tavsiyalar va standartlar ishlab chiqilmoqda.

Eksperimental tartibga solish bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uni an'anaviy huquqiy tartibga solishdan farqlaydi:

Innovatsiyalarga yo'naltirilganlik: Eksperimental tartibga solish yangi texnologiyalar va biznes modellarini sinab ko'rish uchun mo'ljallangan.

Moslashuvchanlik: Tajriba davomida qoidalarni tezkor o'zgartirish imkoniyati mavjud.

Xavf-xatarlarni boshqarish: Cheklangan miqyosda sinov o'tkazish orqali potensial salbiy oqibatlar kamaytiriladi.

Ma'lumotlarga asoslangan qarorlar: Tajriba natijalari asosida qonunchilikni takomillashtirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Ko‘p tomonlama hamkorlik: Jarayonda davlat organlari, biznes va fuqarolik jamiyati ishtirok etadi.

Vaqtinchalik huquqiy holat: Ayrim hollarda mavjud qonunchilik talablaridan vaqtinchalik chekinish ruxsat etiladi [3].

Eksperimental tartibga solish bir qator afzalliklarga ega:

Innovatsiyalarni rag‘batlantirish: Yangi g‘oyalar va texnologiyalarni sinab ko‘rish uchun qulay muhit yaratiladi.

Moslashuvchan qonunchilik: Tez o‘zgaruvchan sharoitlarga mos ravishda huquqiy baza shakllantiriladi.

Samarali resurs taqsimoti: Keng miqyosda joriy etishdan oldin qoidalarning samaradorligi tekshiriladi.

Xavf-xatarlarni kamaytirish: Cheklangan doirada sinov o‘tkazish orqali potensial zararlar minimallashtiriladi.

Manfaatdor tomonlar ishtiroki: Jarayonda turli ijtimoiy guruhlar faol qatnashadi.

Ma‘lumotlarga asoslangan siyosat: Tajriba natijalari asosida asoslangan qarorlar qabul qilinadi.

Raqobatbardoshlikni oshirish: Innovatsion muhit yaratish orqali mamlakatning jahon bozoridagi o‘rni mustahkamlanadi [4].

Eksperimental tartibga solishning ba‘zi salbiy tomonlari ham mavjud:

Huquqiy noaniqlik: Vaqtinchalik qoidalar huquqiy barqarorlikka putur yetkazishi mumkin.

Tengsizlik: Ayrim sub‘ektlarga imtiyozlar berilishi raqobat muhitini buzishi mumkin.

Resurs talab etuvchi jarayon: Tajribani tashkil etish va monitoring qilish katta xarajatlarni talab qiladi.

Manipulyatsiya xavfi: Ayrim manfaatdor guruhlar jarayonni o‘z foydasiga burishi mumkin.

Ijtimoiy himoya masalalari: Yangi texnologiyalar sinovida fuqarolar huquqlari buzilishi mumkin.

Tizimli ta’sirlarni baholash qiyinligi: Cheklangan doiradagi tajriba natijalarini butun tizimga ekstrapolyatsiya qilish murakkab [5].

Eksperimental tartibga solish dunyoning turli mamlakatlarida qo‘llanilmoqda. Quyida eng ilg‘or amaliyotlar ko‘rib chiqiladi. Fransiya eksperimental qonunchilik sohasida yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. 2003-yilda Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirishlar orqali eksperimental tartibga solishga huquqiy asos yaratildi. Bu islohot mahalliy hokimiyat organlariga ham eksperimentlar o‘tkazish huquqini berdi [6].

Asosiy xususiyatlar: Eksperiment o‘tkazish muddati eng ko‘pi bilan 5 yil davom etishi mumkin. Parlament tomonidan nazorat qilinadi. Olingan ma‘lumotlar natijalari asosida umumiy qoidalar qabul qilinadi yoki tajriba bekor qilinadi.

Misol tariqasida: 2019-yilda Fransiya hukumati “blokcheyn texnologiyasi asosidagi moliyaviy vositalar” bo‘yicha eksperimental rejim joriy etadi. Bu rejim kriptovalyuta va tokenlar bilan bog‘liq operatsiyalarni tartibga solish uchun yangi qoidalarni sinab ko‘rishga imkon berdi [7].

Buyuk Britaniya “tartibga solish qumdoni” (regulatory sandbox) konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etgan ilk mamlakatlardan biri hisoblanadi. 2015-yilda Moliyaviy xatti-harakatlar boshqarmasi (FCA) tomonidan joriy etilgan bu mexanizm fintex sohasidagi innovatsiyalarni rag‘batlantirishga qaratilgan edi [8].

Asosiy xususiyatlar: Cheklangan miqdordagi kompaniyalar maxsus mezonlar asosida ishtirok etadi. Maxsus shartlar asosida faoliyat yuritishga ruxsat beriladi. Doimiy monitoring va maslahat berish amalga oshiriladi.

Misol uchun: 2019-yilda FCA tomonidan “global pesochitsa” (global sandbox) tashabbusi ilgari surildi. Bu loyiha turli mamlakatlar regulyatorlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish va transchegaraviy innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan [9].

Ushbu sohada Singapur tajribasi ham juda ilg‘orlaridan hisoblanadi. Singapur innovatsion texnologiyalarni joriy etishda dunyoning yetakchi mamlakatlaridan biri hisoblanadi. 2016-yilda

Singapur Monetar organi (MAS) tomonidan fintex sohasida “tartibga solish qumdoni” joriy etildi [10].

Asosiy xususiyatlar: Eksperimentlar uchun muddat 6 oydan 2 yilgacha qilib belgilanishi hamda iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratilganligi ushbu ta'rifga xosdir. Tajriba natijalari asosida doimiy litsenziya berilishi mumkin

Masalan: 2020-yilda Singapurda sun'iy intellekt texnologiyalari uchun maxsus “Sun'iy intellekt tartibga solish qumdoni” tashkil etildi. Ushbu loyiha SI tizimlarining ishonchliligi va xavfsizligini tekshirish uchun mo'ljallangan [11]. Tajribaning vaqtinchalik xarakterga ega bo'lib u quyidagi davr va bosqichlarga bo'lindi:

- Boshlanish sanasi: 2020-yil yanvar
- Dastlabki bosqich: 2020-2021-yillar (texnologik kompaniyalarni jalb qilish)
- Asosiy bosqich: 2021-2023-yillar (faol testlash davri)
- Natijalarni sarhisob qilish va baholash yakuniy bosqich, : 2023-yil oxirigacha. Ushbu tajriba

asosida:

1. SI sohasida 200 dan ortiq startap loyihalar sinovdan o'tkazildi
2. Xorijiy investitsiyalar hajmi 1.5 mlrd dollarga yetdi
3. Yangi ish o'rinlari yaratildi
4. Xalqaro hamkorlik aloqalari kengayishini nazarda tutilgan.

Tajriba davomida aniqlangan muammolar:

1. Ma'lumotlar xavfsizligi masalalari;
2. Malakali kadrlar yetishmovchiligi;
3. Tartibga solish mexanizmlarining murakkabligi;

Singapur tajribasi sun'iy intellekt texnologiyalarini tartibga solishning samarali modeli sifatida e'tirof etilmoqda. Tajriba davomida:

- Innovatsion ekotizim shakllandi
- Xalqaro investitsiyalar jalb etildi
- Yangi ish o'rinlari yaratildi
- Tartibga solish mexanizmlari takomillashtirildi.

Ushbu tajriba boshqa mamlakatlar uchun ham foydali amaliy tavsiyalar beradi va sun'iy intellekt texnologiyalarini tartibga solishning zamonaviy yondashuvlarini shakllantirishga yordam beradi.

Rossiya Federatsiyasida ham EHR bo'yicha ancha yaxshi amaliy tajriba mavjud. 2020-yil 31-iyulda qabul qilingan 258-FZ-sonli Federal qonun Rossiyada raqamli innovatsiyalarni rivojlantirish va sinovdan o'tkazish uchun yangi huquqiy maydon yaratdi. Qonunning asosiy xususiyati — “tartibga solish qumdoni” (регуляторный песочница) mexanizmini joriy etishdan iborat. Ushbu mexanizm innovatsion texnologiyalarni amalda sinash va huquqiy to'siqlarni pasaytirish imkoniyatini beradi, shu orqali davlatning raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtirdi.

RFda huquqiy eksperimental rejimning asosiy elementlarini quyidagilar tashkil etadi:

- innovatorlar uchun maxsus huquqiy sharoitlar yaratildi;
- huquqiy eksperiment ishtirokchilari uchun aniq qoidalar belgilandi;
- eksperiment jarayonida xavfsizlikni ta'minlash va xatoliklarni tezkor aniqlash uchun tizimli monitoring o'tkazildi;
- huquqiy rejim doirasidagi hujjatlar javobgarlik chegarasini aniq belgilab olindi [12].

2020-yil 31-iyulda qabul qilingan 258-FZ-sonli Federal qonun natijasida Rossiya hududida joriy etilgan eksperimental huquqiy rejimlar doirasi va soni ancha salmoqli raqamlarni tashkil etadi. Masalan:

- haydovchisiz harakatlana oladigan avtomobillar sinovi;
- yo'l harakatini boshqarishda raqamli algoritmlardan foydalanish;
- yuk tashishda samaradorlikni oshirish texnologiyalari;
- blokcheyn va kriptovalyuta tizimlarini joriy etish;
- shaxsni onlayn tanib olish texnologiyalari;

- elektron pullar va kontaktsiz to'lov tizimlari.

Yuqorida aytilgan tajribalarda 100 dan ortiq kompaniyalar loyihalarda ishtirok etishdi[13]. Natijada 50 dan ortiq yangi texnologiyalar amalda sinab ko'rildi.

Rossiyada raqamli texnologiyalarning eksperimental huquqiy rejimlari mamlakatning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur mexanizmlar:

- Innovatsiyalarni sinashdagi huquqiy to'siqlarni kamaytirishga erishildi.

- Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirdi.

- Yangi texnologiyalar uchun xavfsiz sinov maydonchasi yaratdi.

Bu jarayonlarni yanada samarali qilish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish va huquqiy mexanizmlarning shaffofligini ta'minlash zarur.

O'zbekistonda eksperimental tartibga solishni joriy etish istiqbollari

O'zbekistonda so'nggi yillarda innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyotga o'tish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda eksperimental tartibga solish mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, mamlakatimizda eksperimental tartibga solishni samarali joriy etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, ya'ni ushbu sohani tartibga soluvchi huquqiy asoslarni yaratish lozim.

Qonunchilik bazasini takomillashtirish: "Eksperimental huquqiy rejim" to'g'risidagi qonun loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish zarurati mavjud.

Institutsional tuzilmani shakllantirish: Eksperimental tartibga solish jarayonlarini muvofiqlashtiruvchi maxsus idoralararo komissiya tuzish.

O'zbekiston sharoitida eksperimental tartibga solishni quyidagi ustuvor yo'nalishlarda joriy etish mumkin:

Fintex va raqamli moliyaviy xizmatlar

Elektron tijorat va raqamli platformalar

Teletibbiyot va raqamli sog'liqni saqlash

Aqlli shahar texnologiyalari

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari

Blokcheyn texnologiyalari

Eksperimental tartibga solish sohasida ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va qo'llash uchun quyidagi choralarni ko'rish lozim:

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik: Jahon banki, OESR kabi tashkilotlarning texnik ko'magidan foydalanish mumkin.

Ikki tomonlama aloqalarni o'rnatish: Eksperimental tartibga solish sohasida tajribaga ega bo'lgan mamlakatlar (Buyuk Britaniya, Singapur, Yaponiya) bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish.

Mintaqaviy hamkorlik: MDH va Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tajriba almashish va qo'shma loyihalarni amalga oshirish.

Xulosa qilib aytgan, eksperimental tartibga solish zamonaviy huquqiy tizimning muhim elementlaridan biriga aylanib bormoqda. U innovatsion texnologiyalar va biznes modellarini sinab ko'rish, qonunchilikni takomillashtirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun samarali vosita hisoblanadi.

O'zbekistonda eksperimental tartibga solishni joriy etish bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, "Eksperimental huquqiy rejim"gi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish. Ushbu qonun loyihasida eksperimental rejimlarni joriy etish tartibi, muddatlari, ishtirokchilar huquq va majburiyatlari, natijalarni baholash mezonlari aniq belgilab qo'yilishi lozim. Bundan tashqari, eksperimental tartibga solish bo'yicha idoralararo komissiya tuzish, ushbu komissiya turli vazirlik va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish, eksperimental rejimlarni tasdiqlash va monitoring qilish vazifalarini bajarishi kerak.

EHR muayyan sohalarida (fintex, elektron tijorat, teletibbiyot) pilot loyihalarni amalga oshirishnazarda tutadi. Bu orqali amaliy tajriba to'plash va tizimni takomillashtirish imkoniyati mavjud.

Ekspirimental tartibga solish sohasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish ham maqsadga muvofiq. Jumladan, Jahon banki va OESR kabi tashkilotlarning texnik ko‘magidan foydalanish, ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish lozim. Ekspirimental tartibga solish jarayonida shaffoflik va jamoatchilik nazoratini ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Tajriba natijalari muntazam ravishda e‘lon qilib borilishi, jamoatchilik muhokamalari o‘tkazilishi kerak.

Ekspirimental tartibga solish sohasida mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish, oliy ta‘lim muassasalarida tegishli o‘quv kurslarini joriy etish, xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda seminar-treninglar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa shuki, ekspirimental tartibga solish mexanizmlarini joriy etish O‘zbekistonda innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida mamlakatning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga va aholi turmush darajasini yaxshilashga yordam beradi.

Iqtiboslar/Snoski/References:

1. OECD (2019), “Regulatory Sandboxes: A Practical Guide for Policy Makers”, OECD Publishing, Paris.
2. Ranchordás, S. (2021), “Experimental Legislation: A New Paradigm for Public Administration?”, *Administrative Sciences*, 11(1), 8.
3. Fenwick, M., Kaal, W. A., & Vermeulen, E. P. (2017), “Regulation Tomorrow: What Happens When Technology Is Faster than the Law?”, *American University Business Law Review*, 6(3), 561-594.
4. World Bank (2020), “Global Experiences from Regulatory Sandboxes”, World Bank Group, Washington, DC.
5. Zetzsche, D. A., Buckley, R. P., Arner, D. W., & Barberis, J. N. (2017), “Regulating a Revolution: From Regulatory Sandboxes to Smart Regulation”, *Fordham Journal of Corporate & Financial Law*, 23(1), 31-103.
6. Conseil d’État (2019), “Les expérimentations: comment innover dans la conduite des politiques publiques?”, *La Documentation française*, Paris.
7. Autorité des marchés financiers (2019), “The French ICO Regime”, AMF, Paris.
8. Financial Conduct Authority (2015), “Regulatory Sandbox”, FCA, London.
9. Financial Conduct Authority (2019), “Global Financial Innovation Network (GFIN)”, FCA, London.
10. Monetary Authority of Singapore (2016), “FinTech Regulatory Sandbox Guidelines”, MAS, Singapore.
11. Infocomm Media Development Authority (2020), “AI Verify”, IMDA, Singapore.
12. Yegorova M.A. “Pravovoe regulirovanie eksperimentalnykh pravovykh rejimov v Rossii”, Moskva, 2022
13. Petrov S.V. “Regulyatornyye pesochnicy: mejdunarodnyy opyt i rossiyskaya praktika”, *Pravo i sifrovaya ekonomika*, 2021



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 12 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 12

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 9, ISSUE 12

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000